

## MATEMATIKA FANINI O'QUVCHILAR FIKRASH QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISHDAGI O'RNI

**Abduvahobov Doston Abdumannop o'g'li**  
*Nizomiy nomidagi TDPU o\_qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada matematika fanini o\_qitish jarayonida o\_quvchilarning fikrlash qobiliyatini rivojlantirish haqida so\_z yuritilgan. O\_quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirish muhim asos sifatida qaralgan.*

**Kalit so'zlar:** matematika, fikrlash qobiliyati, mantiqiy fikrlash, metod, o\_qitish, tafakkur.

Matematikaning mantiqiy tafakkur rivojlanishi uchun qanday ahamiyatga ega ekanligi qadim zamonlardanoq ma'lum. Tafakkurning matematik stili haqida, har qanday ixtisosdagi mutaxassislarning uni bilishi kerakligi haqida gapirar ekanmiz, bunda mantiqiy tafakkurning yuqori sifatlari: aniqlik, qisqalik, tartiblanganlik, hatto kichkina bo\_lsa ham soxtalikka yo\_1 qo\_ymaslik, to\_la dalil keltirish va hokazolar tushuniladi.

Mantiqiy tafakkurning shakllanishida matematika so\_zsiz birinchi darajali ahamiyatga ega bo\_ladi, chunki u, soxta da'volar bilan uzviy kelisha olmaydi va soxta fikrlarni haqiqatga o\_xshatib ko\_rsatisfidan ko\_ra rad qilishni afzal ko\_radigan noyob fanlardan biridir .

Matematikani o\_qitishda nazariy bilimlarni ongli ravishda chuqur egallash ko\_zda tutiladi, chunki busiz matematik faktlarning amaliy masalalarini o\_rganishga ongli ravishda qo\_llanilishi haqida so\_z borishi mumkin emas.

Maktabda o\_qitiladigan matematika olingen bilimni amaliy masalalarini hal qilishga tatbiq qila bilish o\_quvini ham o\_rgatishi kerak .

O\_quvchilar tafakkurini rivojlantirishda eng muhimi, maktabda olib boriladigan tizimli mashg\_ulotlar hisoblanib, mazkur jarayonda o\_quvchilarning kuzatish, xotira va tasavvurlarini rivojlantirish bilan bog\_liq ravishda maktabda o\_rgatilayotgan bilimlarni o\_zlashtirishi orqali ularning fikrlash doirasi kengayadi, fikrlashning mantiqiyligi va tanqidiyligi rivojlanadi.

Har bir o\_quvchi mashg\_ulot vaqtida va hayot amaliyotida turli vazifalarni hal qilishlari kerak. O\_quvchilar to\_g\_ri savollarni qo\_yish va vazifalarni shakllantirishni o\_rganadi, to\_g\_ri fikrlashni o\_rganadi.

Abstrakt va mantiqiy fikrlashni rivojlantirish bilan birga o\_quvchilar tanqidiy fikrlashi rivojlantiriladi.

Albatta, barcha o\_quvchilar fikrlashini bir xil darajada rivojlantirib bo\_lmaydi. Chunki, har bir o\_quvching shaxsiy xususiyatlari boshqa aqliy jarayonlarning rivojlanishi bilan yanada aniqlanadi, ya'ni xotira, tasavvur, nutq, diqqat, iroda va h.k. Bu xususiyatlar o\_quvchilarning manfaatlariga, ta'lim va amaliyot faoliyatiga, shuningdek mustaqilligiga bog\_liq bo\_ladi.

Psixologik tadqiqotlari natijasi shuni ko\_rsatmoqdaki, o\_quvchilarda fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirishda matematikani o\_qitish, xususan, matematik muammolarni hal qilish muhim o\_rin tutadi.

Muammolarni hal qilish jarayonida matematik tushunchalar va usullarning umumiy va o\_ziga xos xususiyatlarini ko\_rib chiqish, o\_rganilayotgan konsepsiyalarning turli ko\_rinishlarini aniqlashtirish kerak. Shunday qilib, matematika darslarida matematik muammolar va mashqlar o\_quvchilar tomonidan hal etilishi ularning nafaqat matematikaning asosiy tushunchalari, goyalari va usullarini o\_zlashtirishi balki, ularning fikrlash qobiliyatini rivojlantirishi uchun ham zarurdir.

O\_quvchilar mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda matematika fanining imkoniyatlari yuqori hisoblanib, u shaxsning kelgusidagi faoliyati uchun tayanch ko\_nikmalar hisoblangan faoliyatini rejalashtirish, erishgan natijalarini tahlil etish, kerakli hisob-kitoblarning aniqligini oshirish, matematik modellar qurish va tadqiq etish, optimallashtirish kabilarni shakllantiradi va uning kasbiy sifatlarini belgilashda ham muhim o\_rin tutadi.

Matematik vazifalar va mashqlarning samaradorligi asosan o\_quvchilarning ijodiy faoliyati darajasiga bog\_liq. Aslida vazifalar va mashqlarning asosiy maqsadlaridan biri darsda o\_quvchilarning aqliy faolligini faollashtirishdir.

Matematik vazifalar, birinchi navbatda, o\_quvchilarning fikrini uyg\_otishi, ishlashi, rivojlanishi uchun xizmat qilishi lozim. O\_quvchilarning fikrlashlarini faollashtirish haqida gapirganda, biz matematika darslarida o\_quvchilar faqat konstruksiyalarni, transformatsiyalarni va formulalarni bajarishni bilishlari emas, balki matematikadan egallagan bilimlari to\_g\_ri fikrlashga, faktlarni to\_g\_ri tahlil qilishga, taqqoslashga, umumiy va farqlar tomonlarini topishga va h.k.larga ham o\_rgatishi kerak.

Shuning uchun matematika fanini o\_qitish ilmiy va nazariy fikrlashni shakllantirish vazifasini hal qilish uchun qanday hissa qo\_shishini, buning uchun qanday ta'lim jarayoni qanday tarzda tashkil etilishi kerakligini, uning mazmuni qanday bo\_lishi kerakligini aniqlash kerak.

Masalan. Fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish uchun —Muammoli ta'lim texnologiyasini qo\_llash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Ta'lim jarayonida eng asosiysi o\_qituvchi tomonidan o\_quv materialini bayon qilinishi emas, balki o\_quvchilarning faol ijodiy ishlashi asosiy hisoblanadi.

Ta'lim jarayonini —Ma'ruza metodli asosida tashkil etishda o\_quvchilarda matematika faniga bo\_lgan qiziqishni oshirishga, kelgusi o\_z hayotiy faoliyati jarayonida qo\_llashga to\_g\_ri keladigan masalalar asosida tashkil etish ko\_zlangan maqsadga erishishda muhim hisoblanadi

Ma'lumki, ta'lim jarayonining asosiy funkiyalari quyidagilar: o\_qitish va o\_rganish. Ta'lim jarayonining samaradorligi o\_qituvchining ilmiy va metodik bilimdonligigagina bog\_liq bo\_lib qolmasdan, o\_quvchining bilimlarni o\_zlashtirishdagi ijodiy faolligi va mustaqilligiga bog\_liq bo\_ladi. Ya'ni, o\_qituvchining mohirligini o\_z o\_quvchilarining o\_quv jarayonida faol ishtirotkini ta'minlay olish darajasiga qarab baholash mumkin. Ayniqsa matematika fanini o\_qitishda o\_quvchilarning mustaqil aqliy va amaliy faoliyatini to\_g\_ri

tashkil etish talab etiladi. Bunga erishgan o\_qituvchi haqiqiy ma'noda o\_z kasbining ustasi hisoblanadi.

Matematika fanini o\_qitish jarayonini faollashtirishga qanday qilib erishish mumkin?

Ma'lumki, umumiyl o\_rta ta'lim tizimi barcha sinflari va maktab kursining hamma bo\_limlari uchun yagona andoza yo\_q. Hattoki, endigina pedagogik faoliyatini boshlayotgan yosh o\_qituvchi uchun kasbiy mohirlik sirlarini bilib olishga imkon beruvchi pedagogik —amaliy mashinal o\_ylab topish naqadar qiziq bo\_lmasin, bari-bir har bir o\_qituvchi o\_qitishning samarali shakli, metodi va vositalari bo\_yicha doimiy ravishda ijodiy izlashni o\_z oldiga asosiy maqsad qilib qo\_yishi kerak. Chunki, ta'lim jarayonini faollashtirishning yagona andozasining bo\_lishi - bu o\_rganiadigan o\_quv materialning mazmuniga, sinf jamoasining umumiyl aqliy rivojlanish darajasiga, ularning matematik bilimlari darajasiga bog\_liq emas degan ma'noni bildiradi. Bu esa juda katta xatodir.

Har qanday ta'lim metodi o\_quvchining aqliy faoliyatini takommillashtiradimi yoki yo\_qmi?

Bu savolga javobni —Ma'ruza metodi misolida ko\_rib chiqaylik. Ma'lumki, ma'ruza darsida o\_quvchi faqat tinglayotgan bo\_lib ko\_rinadi. Lekin tinglash ham turlicha bo\_lishi mumkin. Mahorat bilan qilingan ma'ruza o\_quvchilar diqqatini o\_ziga tortishi, ularda qo\_yilgan masalaning tabiatini bilib olishga bo\_lgan havasini uyg\_otishi, turli xatolarning oldini olish, bilimlarini keng doiradagi amaliy masalalarga tatbiq qilishga yo\_naltirilgan bo\_lishi mumkin. Albatta, bunday ma'ruza o\_qish oson ish emas. Chunki, mavzuning darslikdagi shundayligicha aytib berishi kutilgan samarani bera olmaydi, negaki darslik hamma o\_quvchilar uchun yozilgan. O\_qituvchi esa guruhdagi o\_quvchilarning qiziqishi, o\_zlashtirish darjasini bo\_yicha yetarli ma'lumotga ega bo\_lishi va mavzuni shularni hisobga olgan holda ma'ruza qilishi ko\_zlangan maqsadga erishishda muhim hisoblanadi. Bu borada buyuk pedagog K.D.Ushinskiy —Bizning diqqatimizni uyg\_otish uchun, predmet bizning uchun yangilik bo\_lishi kerakki, u yoki bizning bilimimizni to\_ldirishi yoki tasdiqlashi, yoki uni tor-mor qilishi kerak — degan edi.

Bunda har bir ta'lim metodining maqsadga muvofiqligi, foydaligi haqida o\_qituvchi o\_zining shaxsiy qiziqishlariga asoslanibgina qolmasdan o\_quvchilarning ijodiy faolligi qay darajada rivojlanishi mumkinligini hisobga olgan holda tanlashi ko\_zlangan maqsadga erishishda muhim o\_rin tutadi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. R.Habib - O\_quvchilarning matematik tafakkurini shakllantirish. T.: O\_qituvchi, 1971.
2. Akmalov A. A. et al. MATEMATIKANI O'QITISHDA KASBGA YO'NALTIRILGAN MASALALAR MAZMUNING AHAMIYATI //INTERNATIONAL CONFERENCES ON LEARNING AND TEACHING. – 2022. – T. 1. – №. 8. – C. 103-106.

- 
3. Barakaev, M., Shamshiyev, A., O\_rinov, X., & Abduraxmonov, D. (2020). Problems of Teaching Mathematics in Modernization. International Journal of Progressive Sciences and Technologies, 19(2), 201-203
4. Akmalov A. A., Zuvidullayeva M. S. MATEMATIKA TA'LIMIDA FANLARARO ALOQADORLIK DAN FOYDALANIB O\_QITISHNI TASHKIL ETISH //Academic research in educational sciences. – 2021. – T. 2. – №. CSPI conference 3. – C. 896-899
5. Doston Abdumannop o\_g\_li, A. . —MATEMATIKANI O\_QITISH JARAYONIDA AMALIY MAZMUNLI MASALALAR DAN FOYDALANISH|. Scientific Impulse, vol. 1, no. 4, Dec. 2022, pp. 1041-3.